

Date: 17<sup>th</sup> April-2026

TA'LIM-TARBIYA, RIVOJLANTIRISH VA TUZATISH ISHLARI YAGONA KORREKSION-PEDAGOGIK JARAYON SIFATIDA

Sabirova Zebo Ixamjanovna

O'zMPU Logopediya kafedrası dotsenti

Qalandarova Munisa Sardorjon qizi

O'zMPU Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta'lim fakulteti 2-bosqich

Logopediya talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta'lim, tarbiya, rivojlantirish va tuzatish jarayonlarining o'zaro bog'liqligi yagona korreksion-pedagogik tizim sifatida tahlil etilgan. O'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar, ularning sabablari hamda bartaraf etish yo'llari yoritilgan. Tafakkur jarayonlarini rivojlantirish va tuzatishda maxsus tashkil etilgan ta'limning ahamiyati asoslab berilgan.

**Kalit sózlar:** korreksiya, maxsus pedagogika, individual yondashuv, differensial ta'lim, omil, yordamchi maktab.

**Kirish:** Shaxs rivojlanishi uzluksiz, murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, u inson hayotining barcha bosqichlarida davom etadi. Ayniqsa, bolalik va o'smirlik davrlarida bu jarayon yanada intensiv kechadi, chunki aynan shu davrda shaxsning jismoniy, aqliy va ma'naviy sifatlari shakllanadi hamda rivojlanadi. Rivojlanish biologik va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelib, turli faoliyat turlari orqali namoyon bo'ladi.

Inson biologik mavjudot sifatida tabiat qonunlariga bo'ysunsa-da, uning rivojlanishi ijtimoiy muhit, ta'lim va tarbiya ta'sirida o'ziga xos tarzda kechadi. Shu nuqtai nazardan, John Lok shaxs rivojida muhitning hal qiluvchi rolini ta'kidlagan bo'lsa, Edvard Torndayk irsiy omillarni ustuvor deb hisoblaydi. Biroq zamonaviy ilmiy qarashlar ushbu omillarni bir butun holda ko'rib, shaxs rivojlanishining asosiy manbai sifatida faoliyatni e'tirof etadi.

Faoliyat inson rivojlanishining muhim mexanizmi bo'lib, u orqali shaxs nafaqat tashqi olamni o'zgartiradi, balki o'zining ichki imkoniyatlarini ham takomillashtiradi. Faoliyat jarayonida o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi, ijtimoiy tajriba orttiradi hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Faoliyatning samaradorligi esa uning mazmuni, tashkil etilish darajasi va motivlarga bog'liq bo'ladi.

**Asosiy qism:** Korreksion-pedagogik jarayonda faoliyatning barcha turlari muhim o'rin tutadi. Xususan, o'yin faoliyati yordamchi maktab o'quvchilarining harakat, tafakkur va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. O'yin jarayonida bolalar turli ijtimoiy rollarni bajarib, hayotiy vaziyatlarni modellashtiradilar, bu esa ularning umumiy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, jamoaviy o'yinlar bolalarda irodaviy sifatlar, mas'uliyat va o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Korreksion-pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlashda individual yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir o'quvchining rivojlanish darajasi, qobiliyati,



Date: 17<sup>th</sup> April-2026

qiziqishlari va psixofiziologik xususiyatlari turlicha bo'lganligi sababli, ta'lim jarayonini differensial tashkil etish zarur. Bu esa o'qituvchi-defektologdan yuqori darajadagi kasbiy mahorat, kuzatuvchanlik va pedagogik moslashuvchanlikni talab etadi. Individual yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim o'quvchilarning yashirin imkoniyatlarini ochishga, ularning faolligini oshirishga va rivojlanish jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Ta'lim faoliyati esa o'quvchilarning yetakchi faoliyati sifatida ularning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayoni izchil, maqsadga yo'naltirilgan va maxsus tashkil etilgan bo'lib, u o'qituvchi-defektolog rahbarligida amalga oshiriladi. Sinf dan sinfga o'tgan sari o'quvchilarning bilim doirasi kengayib, chuqurlashib boradi, ularning dunyoqarashi shakllanadi hamda hissiy-sezgirlik xususiyatlari takomillashadi. Ta'lim mazmunining murakkablashib borishi o'quvchilarni yuqori rivojlanish bosqichiga olib chiqadi va ularning ijodiy faoliyatga layoqatini oshiradi.

Ta'lim, tarbiya, rivojlantirish va tuzatish jarayonlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, yagona korreksion-pedagogik tizimni tashkil etadi. Bu jarayonda o'quvchilarning mavjud rivojlanish darajasi bilan birga ularning potensial imkoniyatlarini ham hisobga olish muhimdir. Shu jihatdan, Lev Vygotsky tomonidan ilgari surilgan "eng yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Mazkur nazariyaga ko'ra, o'quvchi mustaqil bajara oladigan vazifalar bilan kattalar yordamida bajariladigan vazifalar o'rtasida muayyan oraliq mavjud bo'lib, aynan shu zona rivojlanishning asosiy manbai hisoblanadi.

Ta'lim jarayoni nafaqat o'quvchining hozirgi rivojlanish darajasiga, balki uning kelajakdagi imkoniyatlariga ham tayanishi lozim. Bu esa ta'limni rivojlantiruvchi va tuzatuvchi xarakterga ega bo'lishini ta'minlaydi. Leonid Zankov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham ta'limni yuqori darajada tashkil etish orqali o'quvchilarning umumiy rivojlanishini jadallashtirish mumkinligini ko'rsatadi.

**Xulosa:** Korreksion-pedagogik jarayon samaradorligi individual yondashuvga bevosita bog'liq. Har bir o'quvchining imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta'lim ularning rivojlanishini tezlashtiradi va faolligini oshiradi. Ta'lim va mehnat faoliyatining uyg'unligi esa o'quvchilarning bilim, ko'nikma va ijtimoiy tajribasini shakllantiradi. Shu bilan birga, rivojlanishning potensial imkoniyatlariga tayanish, xususan "eng yaqin rivojlanish zonasi"ga asoslanish, ta'limning rivojlantiruvchi va korreksion ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. P. M. Pulatova " Maxsus pedagogika ". Fan va texnologiyalar nashriyoti 2014-yil.
2. L. R. Muminova " Maxsus psixologiya ". O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti 2013-yil.
3. D.A.Nurkeldiyeva , M.U.Hamidova " Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi ".

